

## TURK VA MO'G'UL TILLARINING MORFOLOGIK TAHLILI

*Boyqulova Sevara**Rabbimqulova Go'zal**Ilmiy rahbar: Shamsuddinova Iqbol*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turk va mo'g'ul tillar tuzilishi, ularning morfologiyasi tahlili va ularning o'shash va farqli jihatlari haqida ma'lumot berib o'tiladi. Shuningdek mo'g'ul tilining o'ziga xos farqli jihati haqida ham ba'zi misollar keltirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Keshik, Jeyron, Maral, unshiv, fleksiya, uyldverel

**Abstract:** This article provides information on the structure of the Turkish and Mongolian languages, analysis of their morphology, and their similarities and differences. examples are given.

**Key words:** Keshik, Jeyron, Maral, unshiv, flexion, wild

Turkiy tillardagi qadimiy morfologik shakllar tahlil qilinganda oltoy nazariyasidagi fikrlar ma'lum ma'noda, asoslangandek bo'ladi. Turkiy va mo'g'ul tillari o'rtasidagi morfologik yaqinlik turkiy tillarda turlicha namoyon bo'ladi. G'arbiy mo'g'ul tillarida turkiy tillar bilan umumiy bo'lgan morfologik elementlar janubiy mo'g'ul tillariga nisbatan ko'proq uchraydi. Turkiy tillar faqat genetik jihatdan qarindosh tillar bo'lib qolmasdan, ayni paytda tipologik jihatdan ham bir xil til hisoblanadi. Tillarning morfologik tasnifi bo'yicha agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Turkiy tillarda affikslar monofunksional harakterga ega. Masalan, -sar shart mayli shakli, -moq noaniq shakli. Ammo turkiy tillarda ayrim affikslar bir necha vazifa uchun xoalangan. Masalan -lar affiksi grammatik ko'plikni ifodalash bilan bir qatorda uslubiy ma'noga ham ega. Shunday ekan mo'g'ul tillari haqida ham gapiradigan bo'lsak Mo'g'ul tili ham tuzilishi jihatdan turkiy tillar kabi agglyutinativ til hisoblanadi. Mo'g'ulcha so'zlarning morfemik tahlilida qiyinchiliklar tug'diradigan juda ko'p morfofonematik qoidalar mavjud. Mo'g'ul tiling turkiy tildan ajratib turadigan asoiy farqi ham mana shundadir. Ya'ni biz turkiy tildagi so'zlarni tahlil qilganimizda dastlab o'zak, so'z yasovchi, so'ng lug'aviy shakl yasovchi va sintakik shakl yasovchi kabi tartibda joylashadi. Mo'g'ul tilida esa aksincha, so'z tuzilishi va yangi so'z yasovchi kabi tartibda joylashadi. Masalan mo'g'ul tilida "unshiv" (unshiv)-o'qish ma'nosi so'zining fleksiya qo'shimchasi faqat o'tgan aodda zamoni ifodalaydi. Bundan tashqari so'zda old qo'shimcha kuzatiladi, turkiy tillarda old qo'shimcha qo'shilishi kuzatilmaydi. Mo'g'ul morfemalari so'z o'zagi, hosila, flektiv qo'shimchalarga bo'linadi. Mo'g'ul tilida otlarning jins masalasi yo'q. Ot o'zaklari, ko'plik, hol egalik va hokozalar uchun belgilangan tartibda belgilanishi mumkin. Mo'g'ul tilining yana o'ziga xosligi ot yasash qo'shimchalari va

fe'l yasash qo'shimchalari ko'p hollarda ot+fe'l....kabi o'zaro bog'lanadi.Misol sifatida uyldverel (ishlab chiqarish )so'zini keltirish mumkun.Lug'atshunoslar ba'zan ba'zi so'zlarning kelib chiqishini aniqlashda "mo'g'ul-turkiy" qo'shma atamasini ham qo'llaganlar.Yuqoridagi izohlarga ko'ra,Dadaboyev va Xolmanovalarning "Turkiy tillarning qiyosiy- tarixiy grammatikasi"kitobida so'zning kelib chiqishi va o'zagini aniqlash uchun bunday qo'shma atamalarning qo'llanilishi etimologik jihatdan to'g'ri emas ekanligi haqida fikr berib o'tilgan.Masalan forscha lug'atlarda " Keshik", "Jeyron", "Maral"kabi so'zlarning kelib chiqishi.Turkiy so'zlarning barchasi mo'g'ulcha ildizlarga ega bo'lsada,bu holatni faqat forscha lug'atlarda ko'rish mumkun.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkunki, Turk va mo'g'ul tillari bir-biri bilan chambarchas bog'liq ammo shuningdek bu tillar o'rtasidagi ba'zi farqlarni ham ko'rib chiqdik.Tillar o'rtasida grammatik tuzilishi jihatdan ya'ni morfologiyasida ba'zi farqlarni uchratdik.Tillarning chatishuvihaqida gap leyganda, faqat lksikasi haqida emas,balki fonetika,morfologiya,sintaksis sohalaridagi bir tomonlama yoki o'zaro ta'sir ham nazarda tutiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H.A Dadaboyev,Z.T Xolmanova "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi"
2. Yo.Abdurasulov "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi"
3. Irisqulov "Tilshunoslikka kirish"
4. N.Uloqov "Tilshunoslik nazariyasi"